

## **JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN MOL MULK SOLIG'INI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

**Shamsiyev Nodir Muratovich**

Soliqlar va sug'urta ishi kafedrasida katta o'qituvchisi  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada jismoniy shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortishning yangi modelini joriy etish kontseptsiyasi va tartibidagi o'zgarishlar ko'rib chiqiladi. Mulk qiymatini baholashning turli xil variantlari taqdim etilgan.*

*Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va uning mahalliy byudjet daromadlariga ta'sirini baholashda yangi uslubiy yondashuvlarni qo'llash natijalariga baho berildi. Maqolada qonun normalari tahlil qilingan bo'lib, bu soliq solish ob'ektini aniqlash va soliq solinadigan bazani shakllantirish nuqtai nazaridan, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblashni taklif etilayotgan mexanizmini takomillashtirish yo'llari aniqlangan.*

**Kalit so'zlar:** soliq, stavka, mol-mulk, zamonaviy mexanizm, shakllantirish, takomillashtirish yo'llari, jismoniy shaxslar.

### **ABSTRACT**

*The article discusses changes in the concept and procedure for introducing a new model of taxation of property of individuals. Various options for property valuation are offered.*

*The results of the application of new methodological approaches in calculating the tax on property of individuals and assessing its impact on local budget revenues are evaluated. The article analyzes the legal norms and determines ways to improve the proposed mechanism for calculating the tax on the property of individuals in terms of determining the object of taxation and the formation of the tax base.*

**Keywords:** tax, rate, property, modern mechanism, methods of formation, improvement, individuals.

### **KIRISH**

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mahalliy budjet daromad qismini shakllantiruvchi soliqlardan biridir. 2002 yil 1 yanvargacha jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan avtomobillar, motorli qayiqalar va boshqa transport vositalari dvigatellarining quvvati soliq solish ob'yekti bo'lib hisoblangan. Lekin,

2002 yil 1 yanvardan Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 490-sonli qaroriga muvofiq yoqilg'i solig'i joriy etildi.

Mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilaridir.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish ob'ektidir. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish ob'ektlarining qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish ob'ektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish ob'ekti bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir ob'ekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

#### **Jad. 1. 2018 Yil jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkalari**

	<b>Soliq solinadigan ob'ektlarning nomi</b>	<b>Soliq stavkasi, mol-mulkning kadastr qiymatiga nisbatan %da*</b>
	Turar joylar, kvartiralar (bundan umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo'lganlari mustasno), dala hovli qurilmalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	<b>0,2</b>
	Shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar joylar va kvartiralar:	
	200 kv.m dan oshiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	<b>0,25</b>
	500 kv.m dan oshiq bo'lgan	<b>0,35</b>
	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.metr dan oshiq bo'lgan turar joylar va kvartiralar	<b>0,25</b>

\*Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida mol-mulkning qiymati kadastr hujjatlaridan kelib chiqib belgilanadi, biroq 42 000 000 soʻmdan kam boʻlmasligi kerak.

Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash boʻyicha organlar belgilagan kadastr qiymati boʻlmasa, soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida 210 000,0 ming soʻm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda – 90 000,0 ming soʻm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Mol-mulkka boʻlgan huquqni roʻyxatdan oʻtkazuvchi organlarda belgilangan tartibda roʻyxatga olinmagan yangi qurilgan turar joylar boʻyicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqib undiriladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan soliq solinadigan obʻektlardan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda yoxud ular yuridik shaxslarga yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan turar joy fondi obʻektlari noturar joy fondi toifasiga oʻtkazilganda yoki ular tomonidan noturar joy fondi obʻektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk sifatida xarid qilinganda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka boʻyicha toʻlanadi.

Quyidagi jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solinmaydi:

1) “Oʻzbekiston Qahramoni”, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor boʻlgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning;

3) oʻn nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning (60 kv.m hajmida);

4) pensionerlarning. (60 kv.m hajmida);

5) I va II guruh nogironlarining. (60 kv.m hajmida);

6) sobiq SSSRni, Oʻzbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chogʻida yaralanganligi, kontuziya boʻlganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda boʻlish bilan bogʻliq kasallik tufayli halok boʻlgan harbiy xizmatchilar hamda ichki ishlar organlari xodimlari ota-onalarining va beva xotinlarining (beva erlarining).

Soliq solinmaydigan maydon quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$SS=(Q_{um}-(Q_{um}/S_{um})*60 \text{ kv. metr})*M$$

bu yerda:

**SS** - Soliq summasi

**S<sub>um</sub>**-mol-mulk egallagan maydonining umumiy miqdori;

**Q<sub>um</sub>** -mol-mulkning umumiy inventarizatsiya qiymati;

**M** - mol-mulk solig'i stavkasi.

Yuqorida nazarda tutilgan belgilangan imtiyozlar mulkdorning tanlashiga binoan faqat bir mol-mulk ob'ektiga taalluqli bo'ladi. Imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan soliq solish ob'ektlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish ob'ekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Imtiyozlarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar imtiyozlarni olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadilar. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra kadastr qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir nechta mulkdorning umumiy ulushli mulkida bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mulkdorlarning har biri tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi.

Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mulkiga solinadigan soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi. Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ular barpo etilgan yildan keyingi yil boshidan e'tiboran to'lanadi. Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq merosxo'rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi. Mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi. Hisoblangan yillik soliq miqdori 15 oktabrdan kechiktirmay mahalliy budjetga to'lanadi. Agar soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha summalar to'langan bo'lsa, soliq va yig'implar bo'yicha qarzlari mavjud bo'lmasa, ushbu summalar uning yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etiladi.

Masalan, AQShda jismoniy shaxslar mulkiga solinadigan soliq ko'pchilik shtatlarda undiriladi. Soliq stavkalari shtatlar bo'yicha farqlanadi. Ko'chmas mulkni baholash bilan shug'ullanadigan soliq idorasi xizmatchilari soliq baholovchilari deb nomlanadilar. Mulk solig'i tushumlari hokimiyat tuzilmalarining barcha darajadagi soliq tushumlarining salkam 9,0 foizini tashkil etadi. AQShda mulk soliqlari shtat va munitsipalitet darjasida undiriladi.

Buyuk Britaniyada, esa jismoniy shaxslarning ko'chmas mulkiga solinadigan soliq mahalliy byudjetni shakllantiruvchi asosiy soliqlardan biri hisoblanadi. Renta to'lovi soliq asosi bo'ladi. U ko'chmas mulk egalari yoki uni ijaraga oluvchilardan undiriladi. Xullas, mol-mulk solig'i to'lovchilari bo'lib, mulk egalari yoki ishtirokchilari hisoblanadi. Shuningdek, ushbu soliq to'lovchilari qatoriga uy-joyni ijaraga oluvchilar hamda kvartira haqini to'lovchilar ham kiradi. Ko'chmas mulk qiymati odatda 10 yilda bir marta baholanadi. Mol-mulk solig'i mahalliy budjetni shakllantirgani sababli, soliq stavkasi mahalliy hokimiyat tomonidan belgilanadi. Albatta, mahalliy hokimiyatning moliyaviy resurslarga bo'lgan talabidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Shu sababli, Buyuk Britaniyadagi mol-mulk solig'i turli shahar va grafliklari bo'yicha sezilarli darajada farqlanadi.

Yaponiyada bu soliqni bizning mamlakatdan farqli o'laroq yuridik va jismoniy shaxslar bir xil stavkada to'laydilar. Odatda bu mulk qiymatining 1,4 foizini tashkil qiladi. Mol-mulkni qayta baholash 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Soliqqa tortiladigan ob'ektga barcha ko'chmas mulklar, yer, qimmatbaho qog'ozlar, bank depozitlari bo'yicha foizlar kiradi. Soliq shuningdek, mulk bir egadan boshqasiga o'tgan vaqtida, ya'ni mulk sotish yoki sotib olish vaqtida ham to'lanadi.

## **XULOSA**

Shunday qilib, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq to'lash tartibiga O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga 2019 yil kiritilgan o'zgartirishlar asosida olib boriladi (uy-joy narxining oshishi; ko'p xonadonli va kam qavatli uylar qurilishi va boshqalar). Shunga qaramay, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliqni shakllantirishga yangi yondashuvlar O'zbekistonda mulkni soliqqa tortish tizimini isloh qilishda muhim qadam bo'lishi kerak.

## **REFERENCES**

1. <https://lex.uz/ru/docs/-112097> [Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlar to'g'risida]
2. <https://lex.uz/docs/-4674902> [O'zbekiston respublikasining soliq kodeksi]

- 
3. Аделя Ибрагимова Нургалиевна, Исломбек Сабурязов Кудратович, Мадинабону Махмуджонова Ахмедова Роль литературы в формировании гражданского права // Science and Education. 2020. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-literatury-v-formirovanii-grazhdanskogo-prava> (дата обращения: 28.05.2022).
  4. Маликова Н.М., Семенихин В. В. Прогрессивный подоходный налог должен служить средством обеспечения социальной справедливости. – Саратов: ГАРАНТ: Ай Пи Эр Медиа, 2019.
  5. Nabiev F. O'zbekistonda daromad solig'i islohoti: 2016-2021 yillar natijalari// Science and Education, Vol. 3. 2021.
  6. Rustamova M.L. and Sattorova V.S. The main ways to improve the taxation of personal income in the Republic of Uzbekistan// Bulletin of the Volgograd State University. Series 3: Economy. Ecology, vol. 3, no. 1, 2011, pp. 172-182.